

**Artikova Muhayyo Botiraliyevna,**

Andijon davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi" kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Vohidov Sardorbek Bahodir o'g'li,**

Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

## TARIX YO'NALISHI TALABALARINING ILMIY BILIMLARINI "TARIXIY SHAXSNI TOP" METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

UO'K: 378.091.1

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2025\\_ISSUE\\_5\\_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_5_7)

---

### **ARTIKOVA M.B., VOHIDOV S.B. TARIX YO'NALISHI TALABALARINING ILMIY BILIMLARINI "TARIXIY SHAXSNI TOP" METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

Ushbu maqolada tarix yo'nalishi talabalarini ilmiy bilimlarini "Tarixiy shaxsni top" metodi orqali rivojlantirishning ahamiyati, shu bilan birga ushbu metod orqali dars mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etishning usul va vositalari bayon etilgan bo'lib, ushbu metodologiya talabalarining ilmiy bilimlarni nazariy, shu bilan birga amaliy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Maqolada O'zbekiston tarixi faniga oid tarixiy shaxslar va ularning hayot faoliyatiga doir rasmlar orqali talabalar ilmiy bilimlarni rivojlanib borishi yoritib berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: fan, talaba, ilmiy bilim, shaxs, tenglik, tendentsiya, o'ziga xoslik, jamiyat, usul.

---

### **АРТИКОВА М.Б., ВАХИДОВ С.Б. РАЗВИТИЕ НАУЧНЫХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ИСТОРИИ ПО МЕТОДИКЕ "НАЙДИ ИСТОРИЧЕСКУЮ ЛИЧНОСТЬ»**

В данной статье изложена значимость развития научных знаний студентов исторического направления методом "Найди историческую личность", а также методы и средства организации интересной и эффективной курсовой работы с помощью данного метода, данная методика способствует усвоению студентами научных знаний в теоретической и в то же время практической форме. В статье освещается развитие научных знаний студентов посредством иллюстраций исторических личностей и их жизнедеятельности, связанных с историей Узбекистана.

Ключевые слова и понятия: наука, ученик, научное знание, личность, равенство, тенденция, идентичность, общество, метод.

**ARTIKOVA M.B., VOHIDOV S.B. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE OF STUDENTS OF THE HISTORY DIRECTION ON THE BASIS OF THE METHOD «FIND A HISTORICAL PERSON»**

This article describes the purpose of developing the scientific knowledge of students of the history direction through the method "find a historical person", as well as the methods and means of the heated and effective organization of lesson activities through this method, this methodology helps students to master scientific knowledge in theoretical and at the same time practical level. The article highlights the development of scientific knowledge of historical figures of the history of Uzbekistan and students through irrepressible drawings of their life activities.

Key words and concepts: science, student, scientific knowledge, personality, equality, trend, identity, society, method.

**Kirish.** Ilmiy bilimlarni egallashda metodika alohida o'rin tutadi. Bu borada taniqli rus metodisti V.V.Golubkovning: "Barcha metodikalar, ular qaysi fanga tegishli ekanidan qat'iy nazar, shu jihatdan bir-birlariga o'xshaydilar, ular prinsiplar, materiallar va o'qituvchi metodlarini muayyan izchillikda tekshirishga qaratiladi va nimaga, nimani va qanday degan uch asosiy savolga javob beradi"<sup>1</sup> haqiqatdan ham barcha metodikalar bir biriga juda o'xshaydi. Bugungi kunda talabalarining ilmiy bilimlarini egallashda eski an'anaviy metodlardan foydalanish, shu metodlar orqali dars mashg'ulotlarini olib borish bugungi globallashib borayotgan ta'lim tizimiga mos kelmaydi. "Zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash talabalarga tarixni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi"<sup>2</sup>. Bugungi ta'lim tizimida talabalarining nazariy shu bilan birga ilmiy bilimlarini rivojlantirish, ularning o'quv jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir metodlar yaratish va yangi metodlarni ta'lim tizimiga yo'naltirish lozim. "Tarixiy shaxsni top" metodi tarix yo'nalishi talabalarining tarixiy voqealarni, tarixiy shaxslarni anglash va tushunish imkonini beradi. Ushbu metod ta'lim jarayonini samarali qilish bilan birga, qiziqarli va esda qolarli holda tushunish imkonini beradi. Ushbu metod talabalarni tarixiy shaxslarni yodlash bilan emas, balki ularni ko'rish orqali anglashga undaydi. Bu yondashuv esa talabalarni dars jarayoniga qiziqishlarini yanada oshiradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda talabalarining faolligini oshiradigan va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadigan usullar dolzarb hisoblanadi. An'anaviy ta'lim metodlari bugungi kun talabalarini o'rganilayotgan mavzularni yuzaki va sayoz qabul qilishga olib kelmoqda, bu, o'z navbatida, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish muhim. "Tarixiy shaxsni top" metodining dolzarbligi shundaki, u talabalarni tarixiy jarayonlarga chuqurroq kirib borishga va shaxslar orqali tarixiy voqealar mohiyatini tushunishga yo'naltiradi. Shularni inobatga olsak "Tarixiy shaxsni top" metodi dolzarb o'rganilishi kerak metod sifatida qarash o'rindir. Ushbu metod orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirish, ilmiy-tahliliy fikrlashni shakllantirish, tarixiy merosni hozirgi jamiyat bilan bog'lash, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shu bilan birga tarixiy shaxslarni tahlil qilish va ularni bir birlari bilan solishtirish imkonini beradi. Bu esa o'rganilgan tarixiy shaxslar haqida bilimlarni uzoq saqlanishiga xizmat qiladi. Ushbu metodning yana bir dolzarbligi shuki o'rganilgan tarixiy shaxslarni bilish orqali ularni milliy g'urur va ajdodlarga mos avlod bo'lish kabi ko'nikmalar shakllanadi. "Tarixiy shaxsni top" metodi bugungi ta'lim talabalariga mos bo'lib, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish orqali talabalar ilmiy-tahliliy fikrlashni rivojlantiradi, tarixiy voqealarni hozirgi jamiyat bilan bog'lashga o'rgatadi va darslarni qiziqarli, samarali hamda esda qolarli qiladi. Shu sababli, ushbu metod tarix ta'limida dolzarb va foydali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Голубков В.В. Методика преподавания литературы. – Москва: Госучпедиз, 1962. – С. 7.

<sup>2</sup> Vohidov S.B. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar. // Maktabgacha va maktab ta'lim jurnali. № 2. 13-fevral, 2025-yil. 452-b.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** "Tarixiy shaxsni top" metodidan foydalanish bo'yicha bir qancha olimlar o'z fikrlarini bayon qilishgan. R.Marzano, H.Gardner, F.Axmedshina va F.Aqchayev, R.E.Xoliqova kabi pedagog olimlar o'rgangan.

F.Axmedshina va F.Aqchayev tomonidan tayyorlangan «Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish»<sup>1</sup> nomli o'quv-uslubiy qo'llanmada tarix darslarida tarixiy shaxslarni topish o'yinli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va aqliy mashg'ulotlar loyihalari taqdim etilgan. H.Gardner ko'p intellekt nazariyasi (Multiple Intelligences Theory)<sup>2</sup> bo'yicha har bir talabaning o'ziga xos o'rganish usuli mavjud. "Tarixiy shaxsni top" metodida talabalar mustaqil tadqiqot, jamoaviy munozara va taqdimotlar orqali o'zlarining individual qobiliyatlariga mos usullarda o'rganishlari mumkin. deb ta'kidlaydi.

**Maqolaning ilmiy yangiligi.** Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi "Tarixiy shaxsni top" metodini dars mashg'ulotlariga tatbiq etish orqali talabalarda tarixiy shaxslarni chuqurroq anglash va ular haqida kengroq tushuncha hosil qilish imkonini yaratadi. Ushbu metodning yangiligi shundaki tarixiy shaxslarning suratlarini topish orqali talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, shu bilan birga ijodiy va qiyosiy fikr yuritishlariga, o'quv jarayonini qiziqarli va tushunishga yordam beradi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Oliy pedagogik ta'lim muassasalari tarix yo'nalishi talabalarining ilmiy bilimlarini "Tarixiy shaxsni top" metodi orqali rivojlantirish, tarixiy shaxslar haqida tasavvur va ko'nikma hosil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti.** Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tarix yo'nalishi talabalarini ilmiy bilimlar egallash jarayoni tanlandi.

**Nazariy tahlil** - Ilmiy adabiyotlar, pedagogik va metodik-uslubiy qo'llanmalar asosida "Tarixiy shaxsni top" metodining nazariy jihatlarini va uning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar:** tizimli-lik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, empirik kuzatuv natijalaridan foydalanildi.

<sup>1</sup> F.Axmedshina, F.Aqchayev. "Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish" - o'quv uslubiy qo'llanma. - Toshkent: 2018, 60-b.

<sup>2</sup> Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.

**Asosiy qism.** "Metodika – bu vaqtni tejash, o'quv materialidagi asosiy va bosh xususiyatlarni ko'ra olish ko'nikmasi, jamoa mehnatini tashkil etabish san'ati; bu talabalarga ularning individual xususiyatlarini ko'zda tutib ta'sir ko'rsatish tizimidir"<sup>3</sup>, deb bergan ta'rifi metodika nima ekanligini tushunish kerakligi bilan ajralib turadi. Darslarda, o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metod va usullar, pedagogik texnologiyalar, umuman, dars sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik tadbirlar har bir fan o'qitilishining mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shularni inobatga oladigan bo'lsak ilmiy bilimlarni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini oshirish va ularni ilmiy faoliyatga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan "Tarixiy shaxsni top" metodi - talabalarni faollashtiruvchi interfaol ta'lim vositalardan biri bo'lib, ular tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarishga undaydi. Bu metod orqali talabalar tarixiy shaxslarning faoliyati, ular yashagan davr va ta'sir doirasini chuqurroq o'rganadilar.

Ushbu metodning maqsadlari:

- tarixiy tafakkurni shakllantirish;
- tahlil qilish va qiyosiy o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- mustaqil izlanish va dalillarga asoslangan fikrlashni o'stirish;
- tarixiy shaxslarning jamiyat rivojiga ta'sirini tushunish;

Ushbu metod yordamida tarixiy shaxslar hayoti olib borgan ishlari talabalarga bayon qilinadi va ular bayon qilingan ma'lumotlar asosida qaysi tarixiy shaxs haqida fikr yuritilayotganini haqida tushuncha hosil qiladi. suratdagi tarixiy shaxsni topishga harakat qiladi. Ushbu metodni o'quv jarayoniga qo'llash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi O'zbekiston tarixi faniga oid tarixiy shaxslar haqida umumiy ma'lumot beradi.

1-shaxs. Ushbu shaxs taniqli o'zbek jadidi, ma'rifatparvar, dramaturg, jurnalist va nashriyotchi bo'lib, O'zbekiston va Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining asoschilaridan biri hisoblanadi. U o'zining islohotchi g'oyalari, yangi usul maktablarini tashkil etishi va matbuot sohasidagi faoliyati bilan tarixda chuqur iz qoldirgan.

<sup>3</sup> Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы. – М.: Академия, 2004. – С. 4.

## 1-jadval. "Tarixiy shaxsni top" metodini dars mashg'ulotlarida qo'llash bosqichlari

|                                     |                                                                                                            |
|-------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich: Kirish va tayyorgarlik   | O'qituvchi tarixiy shaxslar haqida umumiy ma'lumot beradi.                                                 |
|                                     | Berilgan ma'lumotlar asosida tarixiy shaxs haqida tasavvur hosil bo'ladi                                   |
|                                     | Talabalarga "topishmoq" uslubida qisqa tavsiflar yoki muhim voqealar taqdim etiladi                        |
|                                     | Har bir guruh yoki talaba tarixiy shaxsni topishga harakat qiladi.                                         |
| 2-bosqich: Qidiruv va tahlil qilish | Bu bosqichda talabalar turli manbalar (kitoblar, internet, ilmiy maqolalar) orqali izlanish olib boradilar |
|                                     | Topilgan ma'lumotlarni guruhda muhokama qilishadi va shaxsning tarixdagi o'rnini belgilaydilar.            |
| 3-bosqich: Taqdimot va muhokama.    | Har bir guruh o'z topgan tarixiy shaxsining hayoti, faoliyati va ahamiyati haqida taqdimot qiladi          |
|                                     | Boshqa talabalar taqdimotga savollar berib, tahlil va bahs-munozara olib borishadi.                        |
|                                     | O'qituvchi talabalar bilan birga natijalarni muhokama qiladi.                                              |
| 4-bosqich: Xulosa va refleksiya.    | Talabalarga tarixiy shaxslarning hozirgi jamiyatga ta'siri haqida savollar beriladi.                       |
|                                     | Mustaqil xulosa chiqarish uchun qo'shimcha topshiriqlar berilishi mumkin.                                  |



Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919)

2-shaxs. Buyuk sarkarda, davlat arbobi, shoir va tarixchi bo'lib, katta sulolaning asoschisi hisoblanadi. U Hindistonda imperiyaga asos solib, bu davlatni kuchli saltanatga aylantirgan.



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 - 1530)

3-shaxs. Taniqli o'zbek siyosatchisi, davlat arbobi, yozuvchi va jurnalist bo'lib, O'zbekiston SSRni 24 yil davomida (1959–1983) boshqargan. U o'zining uzoq yillik rahbarligi davrida mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.



Sharof Rashidov (1917–1983)

4-shaxs. o'zbek jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, ma'rifatparvar, pedagog, publit-sist va siyosiy arbob bo'lib, Turkiston jadidlarining eng nufuzli vakillaridan hisoblanadi. U 1878-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan.



Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931)



5-shaxs. Buxoro amirligining so'nggi hukmdori bo'lib, 1910-yildan 1920-yilgacha taxtda o'tirgan. U Mang'itlar sulolasining oxirgi vakili sifatida Buxoro amirligini boshqargan



**Muhammad Olimxon (1880 - 1944)**

6-shaxs. Xiva xonligining Mang'it sulolasidan chiqqan hukmdor bo'lib, 1910-yildan 1918-yilgacha Xiva taxtini boshqargan.



**Asfandiyorxon (1870 - 1918)**

Shu tariqa "Tarixiy shaxsni top" metodi orqali ma'lumotlarga asoslanib talabalar tarixiy shaxslarni topadilar bu esa dars mashg'ulotlarini yanada samarali va eslab qolishlarini osonlashtiradi.

Ushbu metodning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy shaxslarni o'rganish orqali ilmiy bilimlarni kengaytirish;
2. Tahlil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

3. Jamoaviy ishlash va bahs-munozara olib borish ko'nikmalarini mustahkamlash;

4. Talabalarni faol izlanishga va o'z fikrlarini asoslashga undash;

### **Xulosa.**

Ushbu maqolada "Tarixiy shaxsni top" metodining dars mashg'ulotlarda qo'llanishi ilmiy bilimlarni o'zlashtirishning samarali yondashuv sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonlari shuni ko'rsatdiki ushbu metod orqali mavzularni o'zlashtirilganda talabalar dars mashg'ulotlariga oldingi mashg'ulotlarga qaraganda samarali va tushunarli bo'ldi. Metodning qo'llanilishi talabalar ilmiy va qiyosiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishdilar. Shu bilan birga tasavvur qilish ko'nikmasi yanada boyib bordi. "Tarixiy shaxsni top" metodi bugungi kun talabalarini ta'lim sharoitiga moslashish talabalarining ilmiy bilimlarini egallashda muhim o'rin tutadi.

Yuqorida keltirilgan metod orqali talabalar tarixiy voqealarni chuqurroq anglab, o'z izlanishlarini ilmiy manbalar bilan mustahkamlashadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va tarixiy voqealarni mantiqiy bog'lash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

### **Takliflar:**

– "Tarixiy shaxsni top" metodini samarali qo'llash uchun o'qituvchilar uchun seminar trening o'tkazish;

– Ushbu metodni faqat O'zbekiston tarixi fani bilan qo'llashni cheklamay boshqa fanlar bilan ham qo'llash Misol uchun Jahon tarixi, adabiyot kabi fanlarda qo'llanishi tavsiya etiladi;

– ushbu metoddan foydalanishda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalardan keng foydalanish talabalarda ushbu metodni yanada tushunishga yordam beradi;

– ushbu metodni yanada rivojlantirish uchun talabalar va o'qituvchilarning taklif va mulohazalarini inobatga olib, yanada takomillashtirish tavsiya etiladi;

– dars mashg'ulotlarida qo'llash davomida yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Голубков В.В. Методика преподавания литературы. – Москва: Госучпедиз, 1962. – С. 7.
2. Vohidov S.B. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar. // Maktabgacha va maktab ta'lim jurnali. № 2. 13-fevral, 2025-yil. 452-b.
3. Axmedshina F., Aqchayev F. "Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish" (o'quv uslubiy qo'llanma). – Toshkent: 2018, 60-b.
4. Gardner H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
5. Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы. – М.: Academia, 2004. – С. 4.
6. Shulman L.S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 15(2), 4-14.
7. Adizova N.B. "O'qitishning muammoli shakli va uning o'quv jarayoniga joriy etishning nazariy-metodik jihatlari" // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 11. b.12.